



SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF URBAN ECOLOGY PROTECTION

Madina Dadaboeva

student

Kokand University

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: satellite city, air pollution, smog, "living barriers", conifers, toxic substances, "urban ecology".

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: The article examines one of the city's environmental problems - air pollution, the factors that cause it, proposals and recommendations for its elimination. The importance of state policy in solving environmental problems is discussed.

SHAHAR EKOLOGIYASINI ASRASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Madina Dadaboyeva

talaba

Qo'qon universiteti

Qo'qon, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: yo'ldosh shaharcha, atmosfera havosining ifloslanishi, smog, "tirik to'siqlar", ignabargli o'simliklar, zaharli moddalar, "urboekologiya".

Annotatsiya: Maqolada shahar ekologik muammolaridan biri atmosfera havosining ifloslanishi, uni keltirib chiqaradigan omillar, bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar xususida so'z yuritiladi. Ekologik muammolar masalasida davlat siyosatining ahamiyati haqida so'z boradi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ГОРОДСКОЙ ЭКОЛОГИИ

Мадина Дадабоева

студентка

Кокандский университет

Кокан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: город-спутник, загрязнение атмосферного воздуха, смог, «живые барьеры», хвойные растения, токсичные вещества, «экология города».

Аннотация: В статье рассматривается одна из экологических проблем города - загрязнение атмосферного воздуха, факторы, его вызывающие, предложения и

рекомендации по его устраниению. Обсуждается значение государственной политики в вопросе решения экологических проблем.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turli sohalarda katta o‘zgarishlar yuz berib, bularning natijalari ko‘plab ekspertlar tomonidan e’tirof etib kelinmoqda. Xususan urbanizatsiya sohasida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirib kelinayotganini e’tirof etish mumkin. Urbanizatsiya - jamiyat hayotida shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy roli oshib borishining tarixiy jarayoni [1; 415] hisoblanib, bugungi zamон ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining uzviy qismiga aylanib ulgurdi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, shuningdek, uchinchi dunyo o‘lkalarida ham aholi shaharlarga intilmoqda.

Bugun hatto eng qoloq davatlarda ham kamida bitta nisbatan yaxshi rivojlangan markaz - poytaxt borki, millionlab odamlar, asosan yoshlar qulay yashash sharoiti, doimiy daromad, qolaversa, baxt va omad qidirib u yerga talpinadi. Bu jarayon O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmagan. Bunda asosiy masala shaharlardagi qulaylik bo‘lsada undagi qator ekologik muammolarning shaharlar hayotida ham turli noqulayliklarni keltirib chiqarayotgani ham bor gap.

METODLAR

Mamlakatimizda kun issiq bo‘lganligi sababli, yer tezda qurib chang ko‘tariladi. Maysalar esa ana shu changni ushlab qolishadi. Shu sababli aholi punktlarida aynan maysazorlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. So‘nggi yillarda shaharlarimizda yo‘l va ko‘p qavatli uylar atrofiga ekilgan “tirik to‘sinq”lar, ya’ni butalarni kesib tashlash holati kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida bolalarda nafas yo‘llari kasalliklari, allergiyani olib kelishi extimolini oshirmoqda. Chunki butalar bo‘yi uzun bo‘lmagan bolalarni birinchi galda chang va is gazlaridan himoya qiladi.

Havodagi zararli moddalarni tutib qoluvchi yirik yaproqli daraxtlar, ya’ni chinor va qayrag‘ochlar kesilib, o‘rniga igna bargli manzaralari daraxtlarning ekilishi esa shahar havosini qadimdan o‘stirilgan chinorlarning o‘rnini bosa olmaydi. Shaharlarmizda qancha bog‘lar, maysazor va butazorlar ko‘p bo‘lsa, shuncha insonning yashillikdan ko‘zi quvnaydi, ularning soyasi jazirama issiqliidan, butalar shamolda ko‘tariladigan changdan asrovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek qushlarning asosiy ozuqasi hisoblangan hasharotlarning ko‘payish makoni vazifasini ham o‘taydi.

NATIJALAR

Hozirgi vaqtida shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi eng dolzarb ekologik muammolardan biriga aylandi. Bunga asosiy sabab zavod va fabrikalarlardan chiqayotgan zaharli gazlar hamda transport vositalaridan chiqayotgan tutunlardir.

Mamlakatimizda havoning haddan tashqari ifloslanishi holatlari bugun nafaqat shaharlarda balki shaharlarga yondosh hududlarda ham uchraydi. Bu yo'ldosh shaharchalar hisoblanadi. Yo'ldosh shaharchalardagi havoning ifloslanish holatlari ko'pincha u joylarda joylashgan sanoat korxonalari hisobiga yuz bermoqda. Shaharlardagi havoning ifloslanish holatlarini mavjud daraxtlarni kesib yuborish orqali tuproqlardagi namning yo'qolish sababli yuz bermoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek shaharlardagi havoning ifloslanishiga kimyoviy sanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmini orttirgani ham sabab bo'lmoqda.

Fikrimizcha ushbu muammoni bartaraf etishda atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday xo'jalik faoliyati turlarini ifoslantiruvchi moddalarni tozalash uskunalar bilan jihozlamasdan loyihalashtirishni ta'qilash zarur. Bu bilan ushbu muammoni bartaraf etishda bir qadam oldinga tashlangan bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz shaharlarida havoning ifloslanish holatlari ko'payib borayotganligi kishini havotirga soladi. Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Inson suvsiz bir necha kun chidashi mumkin, ovqatsiz hatto bir oy yashay oladi, havosiz esa bir necha daqiqagina yashaydi. Inson salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi sababli atmosfera havosining ifloslanishi har doim tashvish uyg'otgan. Havoning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi. [4; 2] Aynan shuning uchun biz nafas olayotgan havoning sifatli bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Zero havo sifatining yaxshi bo'lishi sog'lom va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, insonlarni bugungi kunidan rozi bo'lib yashashi uchun katta rol o'ynaydi. Aksincha holatda fuqarolarda turli kasalliklar paydo bo'lishi va ijtimoiy muammolar safi ortishi kuzatilishi mumkin.

Buning uchun 2022 yilning 17-oktyabrida Toshkent shahri aholisi chang tufayli nafas ololmay qolgan, mutasaddilar ushbu jarayonda hech qanday chora qo'llay olmaganini eslash kifoya fikrimizcha. Toshkentdagи bu kabi holatlar 2022 yilning 4-noyabr kuni ham takrorlangani matbuot sahifalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda aks etgan. Shunga o'xshash jarayonlar respublikaning boshqa hududlarida ham kuzatilganini aytish mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko'ra 4 noyabr kuni kechqurun Toshkentda kuzatilgan g'ayrioddiy chang-qumli tumanga shamolning kuchayishi natijasida tuproqning juda qurib qolgan ustki qatlami ko'tarilishi sabab bo'ldi. Bundan shu narsa anglashiladiki, ekologiyaga zarar yetkazish bu bilan tugamaydi, balki boshqa shakldagi muammolarni keltirib chiqaradi. Taqqoslash uchun ijtimoiy tarmoqda changlanish bo'yicha holat e'lon qilinib, Toshkent birinchi o'rinda ekanligi ko'rsatilgan.

Bizga fandan ma'lum bo'lishicha, shaharda havo tozaligi o'simliklar yarusiga bog'liq. Maysalar yerdan ko'tarilayotgan changni, butalar mashinalarning is gazlarini, daraxtlar yuqori

qismdag'i changlar va gazlarni tutib qoladi. Daraxtlardan albatta yuzasi keng bo'lgan turlari, ya'ni chinor, qayrag'och, kashtan, eman va boshqalar ham chang ham is gazlarini tutib qolish qobiliyati yuqori bo'lganligi sababli ularni ko'paytirish yaxshi natija beradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ota-bobolarimiz ko'plab chinor va qayrag'och ekishgan.

Chinor nafaqat soya beradi, balki havoni changdan tozalaydi, uning ildizlari tanasiga ko'p suv yig'ishi sababli jazirama issiqda atrofida o'ziga xos ijobiy mikroiqlim hosil qiladi. Bundan tashqari chinorlar Markaziy Osiyoning barcha respublikalari iqlimiga xos bo'lgan jazirama issiqdan ham asraydi. Soyasida o'ziga xos mikroiqlimni yuzaga keltiradi. Insonning kayfiyatini ko'taradi. Ignabargli daraxtlar bu vazifani to'liq uddalay olmaydi. Albatta, daraxtlar ko'proq changni yutishlari uchun yomg'ir kam bo'lganligi sababli ularning yaproqlarini vaqt vaqt bilan yuvib turish zarur bo'ladi.

Hozirgi vaqtida shaharlarimiz va mamlakatimizning deyarli barcha aholi istiqomat qiladigan manzillarida nafaqat obodonlashtirish xodimlari, balki hovlilarda ham yer bag'irlab o'sgan maysalarni tomiri bilan yulib olib, tuproqni supirib, suv sepishadi.

MUNOZARALAR

Hozirgi vaqtida aholining ko'pchiligi shaharga ko'chib o'tish va u yerda faoliyat olib borish haqida ko'p o'yalamoqda. Ammo bu o'z o'rnida qator ekologik muammolarga ega. Ularni bartaraf etish uchun qator maqsadlar, ustuvor vazifalar belgilangan hamda bajarib kelinmoqda. Bu borada shaharlarda ekologik holatni yaxshilash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan belgilash, ulardagi muammolar xususiyatlarini o'rganish bo'yicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida [2; 255] shuningdek, tadqiqotchi olima D. Yormatovaning "Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish" [3; 109-123] nomli kitoblarida va boshqa adabiyotlarda mulohazalar yuritiladi. Bu mamlakatimizda sohaga e'tibor katta ekanligining yaqqol isbotidir.

So'nggi yillarda mamlakatimiz shaharlarining kengayishi, aholining qishloqdan shaharga ko'chib o'tishining ortishi urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishiga olib keldi va leksikologiyamizda yangi "urboekologiya" tushunchasining muomalaga kirib kelishiga olb keldi. Mazkur tushuncha lotin tilidagi urbs - aholi punkti, ekolog - ekologiya bo'lib, shahar ekologiyasi demakdir. Urboekologiya nafaqat shaharlarning ekologik jihatdan tarixiy rivojlanish jarayoni, balki insoniyatning shaharlar tabiatini asrash, yashil hududlarni kengaytirish, shahar muhitining inson sog'lig'i va faoliyatiga ta'sirini ham o'rganadi.

Mamlakatimizda qator sohalarda bo'lgani kabi shaharlar rivojiga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning uchun hukumat darajasida qator hujjalarni rasmiylashtirilib, ularning ijrosini Prezidentning o'zi kuzatib bormoqda. Hozirgi kunga kelib ushbu sohada bir qator muvaffaqiyatli ishlarni sanab o'tish mumkin. Ammo hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudki, ularni

bartaraf etish juda muhim. Bular qatoriga toza ichimlik suvi, axlat tashib ketish, yani chiqindi muammosi, transport xizmati, yerdan to‘g‘ri foydalanish va yerning zararlanishi, havoning haddan tashqari ifloslanishi, global isish singari masalalarni bir so‘z bilan aytganda ekologik muammolarni kiritish mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ko‘p daraxtlar aynan shaharning suv, kanalizatsiya, issiqlik quvurlari o‘tgan joylarda ekilgani sababli ularni ta’mirlash uchun daraxtlarni olib tashlashga to‘g‘ri kelmoqda. Shaharlar qurilishining bosh rejasiga amal qilib bugungi kunda aynan ana shunday infratuzilmalar ustiga ko‘p yillik daraxtlarni ekmaslik zarur.

Hozirgi vaqtida kashtan singari manzarali daraxtlarni shaharda ekish maqsadga muvofiqdir. “Tirik to‘sqliarga” keladigan bo‘lsak ularning o‘rniga estetik jihatdan chiroyli bo‘lgan, shaharni shovqin va changdan asrovchi manzarali butalarni ekish yaxshi samara beradi.

Foydalanimga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 415 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 255 b.
3. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2018. – 109-123 b.
4. Атмосфера хавоси ифлосланиши мониторинги. //

<https://monitoring.meteo.uz/uz/menu/monitoring-zagrjaznenija-atmosfernogo-vozduha>